

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI BOSHLANG‘ICH TA‘LIMGA TAYYORLASH

Urganch Ranch texnologiya unversiteti

“Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi va psixologiyasi yo‘nalishi

3 – bosqich talabasi Mayliyeva Nasiba Axmedovna.

Annotatsiya. Ushbu maqolada, uzluksiz ta‘limning ilk bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta‘lim tashkilotida tarbiyalanayotgan maktab yoshidagi bolalarga ilk ya‘ni, boshlang‘ich ta‘limga tayyorlash, ularni boshlang‘ich ta‘lim olishlarida ketma – ketlikka rioya qilish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta‘lim, boshlang‘ich ta‘lim, axloqiy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, normal antropometrik ma‘lumotlar, psixologik tayyorgarlik.

Hammaga ma‘lumki, maktabgacha ta‘limda tarbiyalanayotgan har bir maktab yoshidagi bola maktabgacha ta‘lim talablariga rioya qilingan holatda maktabga tayyorlanadi.

Bu ularga kelgusida boshlang‘ich ta‘lim hayotiga moslashishida oson kechishini ta‘minlaydi. Darhaqiqat, maktabgacha ta‘lim, uzluksiz ta‘lim tizimining boshlang‘ich halqasi bo‘lib hisoblanadi. U sog‘lom va har tomonlama yetuk bola shaxsi shakllanishini ta‘minlashga, uni muntazam ravishda ta‘lim olishga tayyorlab, uni o‘qishga bo‘lgan havasini uyg‘otishga qaratilgan bo‘lib, bu 6-7 yoshgacha bo‘lgan davrda davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta‘lim muassasalarida va oilalarda amalga oshiriladi. Bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, ularning borliq, turli o‘quv predmetlariga oid ilk tasavvurlarni mehnatsevarlik, tirishqoqlik, zukkolik faollik kabi fazilatlarining qaror toptirishda maktabgacha ta‘lim maskanlarining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Mana shu maqsadda maktabgacha ta‘lim tizimiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta‘lim va maktabni ta‘lim tizimining bir-biriga bog‘liq ikkita bo‘g‘ini ekanligini aytish joiz. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar guruhi va boshlang‘ich maktab bolalari o‘rtasida uzviylikni o‘rnatishda maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va o‘qitish uchun sharoitlarni yaqinlashtirishga yordam beradi.

Ta‘limning eng muhim vazifasi va uning natijasi sifatida – maktabgacha va boshlang‘ich maktabda bolaning jismoniy, hissiy va intellektual rivojlanishi uchun umumiy bo‘lgan qulay sharoit yaratadigan uzluksiz va uzviy ta‘lim jarayonini amalga oshirishini asos qilish o‘rinli. Kompleks hal etishni taqozo etuvchi eng muhim

vazifalardan biri bu, o‘zaro uzviy va yagona bo‘lgan ta’lim jarayonini yaratishdan iborat.

Uzluksizlik bu – bilimlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi va chuqurlashib borishini, aqliy faoliyatga qo‘yiladigan talablarning murakkablashib borishini, shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishini ta’minlaydigan jarayondir. Ta’kidlash joizki, maktab bolalar hayotida keskin o‘zgarishlar qilmasligi lozim. Bola maktabga borgan, o‘quvchi maqomini olgan bo‘lsada, kechagi ishini bugun ham davom ettirishi kerak. Ya’ni bolani zeriktirib va yoki zo‘riqtirib qo‘ymaslikni ham ta’minlash lozim. Uning hayotida yangi bilimlar asta-sekin olib borilishi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlang‘ich ta’lim bosqichiga bola tayyorgarligining asosiy maqsadi, maktabgacha yoshdagi bolada ta’lim faoliyatini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan fazilatlar shakllangan bo‘lishi lozim. Masalan, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, bolaning o‘zini ijodiy namoyon eta olishi, ijtimoiy munosabatlarda faolligi va boshqalar. Shuni albatta yodda tutish kerakki, bog‘cha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzluksizlikni faqat bolalarni o‘rgatishga tayyorlash deb tushunmaslik lozim. Albatta bola ham buni his qilishi kerak.

Bolaning maktabda o‘qishga maxsus va umumiy tayyorgarligini farqlash lozim.

⇒ Maxsus tayyorgarlik, birinchi navbatda, ona tili, matematika kabi maktab fanlarini o‘rganish uchun asos bo‘lgan bilim, g‘oya va ko‘nikmalar bilan belgilanadi.

⇒ Umumiy tayyorgarlik, uning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan belgilanadi.

- Jismoniy tayyorgarlik holatida – bola sog‘ligining yaxshi holatda bo‘lishi, salbiy ta’sirlarga chidamliligi;

- Normal antropometrik ma’lumotlar – bo‘yi, vazni, ko‘krak atrofi kabilar, motorika sohasining yaxshi darajada rivojlanishi, qo‘l bilan yozishni talab qiladigan kichik, aniq va xilma-xil harakatlarni bajarishga tayyorligi;

- Madaniy va gigiyenik malakalarning yetarli darajada rivojlanishi va hakazolar.

Jismoniy rivojlangan bola maktabda tizimli ta’lim bilan bog‘liq qiyinchiliklarni osonroq yengadi.

Psixologik tayyorgarlik deganda, birinchi navbatda, aqliy rivojlanish darajasi tushuniladi. Katta maktabgacha yosh davri oxiriga kelib, bolalar atrof-muhit, odamlar hayoti va tabiat bilan bog‘liq bilimlarni birmuncha egallaydilar. Ushbu bilimlarning ko‘lami maktabgacha ta’lim dasturi bilan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar alohida ma’lumotni emas, balki aynan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bilimlar tizimini o‘zlashtirishlari muhimdir. Bu ularning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir va bolalar ta’lim jarayoniga qiziqishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bolaning maktabda o'qishga psixologik tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi axloqiy va irodaviy tayyorgarlikdir. Ta'lim jarayoni ixtiyoriy diqqatni, maqsadli yod olishni, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini, intizomni, ma'suliyat, mustaqillikni, tashkilotchilikni talab qiladi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning uzluksizligi quyidagi ustuvor vazifalarni hal qilishi ahamiyatlidir:

- bolalarni sog'lom turmush-tarzi qadriyatlari bilan tanishtirish;
- har bir bolaning hissiy farovonligini ta'minlash;
- tashabbuskorlik, qiziquvchanlik, kabi xislatlarni rivojlantirish;
- dunyoga, odamlarga, o'ziga bo'lgan munosabatlarda kompetensiyani rivojlantirish;
- bolalarni tengdoshlari va boshqa ijtimoiy hamkorlik bilan tanishtirish.

Tarbiyachi va pedagoglar jamoasi oldida turgan birinchi va asosiy vazifa, bolani bolalar bog'chasidan maktab ta'lim muassasasiga o'tish jarayonida qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bu borada ota-onalarning ham o'rni beqiyosdir. Ota-onalar bir muassasadan boshqasiga o'tish bosqichida bolaga tushunishda yordam berish, shu ta'lim dargohiga moslashish va bola u yerda o'zini erkin his qilishida hamroh bo'ladilar. Bunda ta'lim tashkiloti pedagoglari bilan bo'ladigan hamkorlik ham muhimdir. Kichik yoshdagi o'quvchi yaxshi ish qilishi, atrofdagilarga nisbatan achinishi va boshqalarga hamdardlik bildirishi mumkin. Shu bilan birga aksincha, shunga o'xshash vaziyatlarda bola o'z xis-tuyg'ularini bildirmasligi ham mumkin. Bunda kattalarning ro'li ham katta. Ya'ni kattalarning hukmini eshitib u o'z munosabatini tezda o'zgartiradi va shu bilan birga rasmiy emas, balki mohiyatan yanada yaxshiroq bo'lishi, yoki salbiy xulq -atvorga ega bo'lishi mumkin. Boshlang'ich maktab yoshida axloqiy xis-tuyg'ularda bola har doim ham axloqiy tamoyilni yetarli darajada tushunib yetmasligi mumkin, lekin uning tajribasi ayni paytda nima yaxshi ekanligini aytib beradi. Shuning uchun noqonuniy xatti-harakatlar qilganda, u odatda uyat tuyg'usini boshdan kechiradi. Ya'ni, boshlang'ich maktab yoshida uning manfaatlarida, hukmron xis-tuyg'ularida, uni band qiladigan va hayajonlantiradigan narsalarda jiddiy o'zgarishlar yuz beradi.

Maktab – yosh avlodni tarbiyalash tizimining asosiy bo'g'inidir. Bola ta'limining har bir bosqichida tarbiya har jihatdan ustunlik qiladi. Kichik maktab o'quvchilari tarbiyasida bolalar oddiy axloq me'yorlarini o'zlashtiradilar, turli vaziyatlarda ularga rioya qilishni o'rganadilar.

Yosh o'quvchining xulq-atvori va faoliyatini ixtiyoriy tartibga solish nuqtayi nazaridan vazifalar optimal murakkablikda bo'lishi muhimdir. Bu boshida muvaffaqiyat qozonish tajribasini beradi keyinchalik u o'zini shu maqsad asosida qulay xis qilishi, bu esa o'z navbatida keyingi harakatlarini faollashtiradi. Juda qiyin vazifalar

o‘quvchining salbiy tajribasini oshirishi va galdagi vazifalardan bosh tortishi mumkin. O‘quvchilarning uyushqoqlik, ma’suliyat, qat’iyatlilik va boshqa irodaviy fazilatlarini namoyon etishining yana bir sharti – bu uning maqsad sari intilayotganini ko‘rgan va uni o‘z harakatlari va shu harakatlar natijasida amalga oshiradigan faoliyatni tashkil etishdir.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, yosh avlodni kichik maktabgacha yoshidan axloqiy va aqliy salohiyatini shakllantirib borish lozim. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” – deganlaridek bu borada ota-onalar, tarbiyachi-pedagoglar asosiy rolni egallaydilar. Bu bolaning kelgusidagi xatti-harakatlarida, uning kelajakdagi muvaffaqiyatli o‘quv faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Pedagogika -B.S.Siddiqova, D.F.To‘xtasinov, N.Q.Olimova. Farg‘ona-2023
2. Umumiy pedagogika B.SH.SHermuhammadov, B.Q.Qurbonova, U.Q.Maqsudov, M.A.Qo‘chqarova, Z.M.Sidikova
3. G.E.Saidova Pedagogos jurnali 2022
4. Azizxo‘jayev.N.N “Pedagogika texnologiyalari va pedagogik mahorat” T.2006